

Aksiya Qoidalari “Xorijiy o’tkazmalar bo’limi orqali Hisobvaraqnini to’ldirish evaziga Keshbek berilishi”

“Xorijiy o’tkazmalar bo’limi orqali Hisobvaraqnini to’ldirish evaziga Keshbek berilishi” aksiyasi (keyingi o’rinlarda — Aksiya) «Humans» Mas’uliyati cheklangan jamiyati, manzil: 100047, O’zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Maxtumquli ko’ch., 2 B uy, STIR 306624856 (Humans), tomonidan Humans’ning Sodiqlik Dasturi doirasida o’tkaziladi.

1. Aksiya haqida ma'lumot

1.1. Ushbu Qoidalarning matnida bosh harf bilan keltirilgan so’zlar atamalar hisoblanadi. Atamalarning ma’nosi www.humans.uz saytida joylashtirilgan Humans aloqa xizmatlarini ko’rsatish Shartlarida hamda Humans’ning Sodiqlik Dasturi qoidalarida keltirilgan (agar ushbu Qoidalarda boshqasi aniq belgilangan bo’lmasa).

1.2. Xorijiy o’tkazma — Ishtirokchining hisobvarag’ini O’zbekiston Respublikasining rezidenti hisoblanmaydigan bank tomonidan chiqarilgan bank kartasidan Mobil ilovanining Xorijiy o’tkazmalar Bo’limi orqali amalga oshirilgan muvaffaqiyatli operatsiya.

1.3. Hisobot kuni — kun natijasiga ko’ra Bonus beriladigan kun.

1.5. Aksiya o’tkazilish davri: 07.07.2021-y. dan boshlab bekor qilingunicha.

1.6. Aksiya o’tkaziladigan hudud: O’zbekiston Respublikasi.

1.7. Aksiya ishtirokchilar — Humans aloqa xizmatlarini ko’rsatish Shartlarini qabul qilgan holda Operator bilan Aloqa xizmatlarini ko’rsatish Shartnomasini tuzgan, Aksiya o’tkazilishi davrida amaldagi hisoblangan hamda aloqa xizmatlarining taqdim etilishi to’xtatilmagan Mijozlar, jismoniy shaxslar.

2. Aksiya tavsifi

2.1. Aksiya o’tkazilishi davrida hamda Aksiya Qoidalarning 2.2 bandida ko’rsatilgan shartlarga amal qilgan holda Aksiya Ishtirokchisi Xorijiy o’tkazma natijasida Ishtirokchining hisobvarag’iga kelib tushgan summadan Bonus oladi. Ushbu Bonus Ishtirokchiga Keshbek sifatida uning Keshbek-hisobiga kelib tushadi (keyingi o’rinlarda - Bonus). Bonus hajmining hisob-kitobi har kuni, mazkur Qoidalarning 2.3 bandiga muvofiq amalga oshiriladi

2.2. Aksiya shartlari:

- Ishtirokchi Humans Sodiqlik Dasturining amaldagi Ishtirokchisi hisoblanadi, hamda Humans sodiqlik Dasturida uning ishtiroki to’xtatilmagan yoki bekor qilinmagan;
- Ishtirokchi amaldagi Humans aloqa xizmatlarini ko’rsatish shartnomasiga hamda ushbu shartnomada doirasida ochilgan hisobvaraqqha ega;
- Hisobvaraq to’ldirilishi Xorijiy o’tkazma orqali amalga oshirilgan.

2.3. Aksiya doirasida Bonusning hisoblanishi

- Bonus so'm valyutasida Xorijiy o'tkazma summasidan 0.25% (nol butun yuzdan yigirma besh foiz) hisobda har bir Xorijiy o'tkazma uchun beriladi.
- Bonus hajmi yuqori tomonga 1 so'mgacha tenglashtirib beriladi;
- Barcha samarali Xorijiy o'tkazmalar uchun Bonus Hisobot kunining ertasiga soat 06:00 gacha (Operatorning ixtiyoriga ko'ra) hisob-kitob qilinadi.

2.4. Aksiya o'tkazilishi davrida Xorijiy o'tkazma samarali amalga oshirilib, Hisobvaraqqqa summa kelib tushganligi natijasida Keshbek-hisobga Bonus tushiriladi.

2.5. Humans'ning Sodiqlik Dasturiga muvofiq mazkur Aksiyada qatnashadigan Ishtirokchi Humans tomonidan o'tkaziladigan boshqa Aksiyalarda ishtirok etib, Bonus olish huquqiga ega.

2.6. Ishtirokchi olgan Bonuslaridan faqatgina Humans Sodiqlik dasturi doirasida belgilangan shartlarga muvofiq foydalanishi mumkinligi qattiq belgilangan, hamda Bonuslarni pul ko'rinishida olishi mumkin emas.

2.7. Agar har qanday sabablarga ko'ra Xorijiy o'tkazma bekor qilinsa, e'tirozli bo'lsa yoki boshqa qandaydir sababdan Humans to'lovni amalga oshirgan shaxsga o'tkazma summasini qaytarib berishga majbur bo'lsa, Humans Keshbek (Bonus) berilishini bekor qilish va tegishli ravishda Ishtirokchining Keshbek-hisobidagi balansini kamaytirish huquqiga ega.

3. Yakuniy qoidalar

3.1. Mazkur Qoidalar Humans Saytida chop etilgan vaqtdan boshlab kuchga kiradi. Humans bir tomonlama tartibda ushbu Qoidalarga o'zgarishlar kiritishga yoki Saytda tegishli xabarni joylashtirish orqali oldindan ma'lum qilgan holda Aksiyani bekor qilishga haqli. Ma'lum qilingan sana – Saytda tegishli ma'lumot chop etilgan kun. Saytda tegishli ma'lumot chop etilgan vaqtdan boshlab Qoidalar o'zgartirilgan, Aksiya bekor qilingan sanaladi.

3.2. Qoidalarning 2-bo'llimida sanab o'tilgan harakatlarning Mijoz tomonidan bajarilishi jismoniy shaxslarga qaratilgan oferta hisoblanuvchi Qoidalalar bilan to'liq va so'zsiz rozilikni anglatadi.

3.3. Ushbu qoidalar bilan tartibga solinmagan boshqa hollarda Humans'ning Sodiqlik Dasturi qoidalari amal qiladi.